

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA ERTA KOXLEAR IMPLANTATSIYANING AFZALLIKLARI

Raximova Xurshidaxon Sadikovna
Qo'qon davlat Pedagogika instituti
“Maxsus pedagogika”
kafedrasi dotsenti PhD
E-mail: hurshidahon1991rahimova@mail.ru

Annatatsiya: Ushbu maqolada koxlear implantatsiyaning qanchalik erta amalga oshirishni afzalliklari va bu jarayonda mutahassislarning vazifalari yoritilgan. Koxlear implantasiyadan so'ng bolalar bilan reabilitatsiya ishning bosqichlari hamda talaffuzini shakllantirish ishlarining yo'nalishlari yoritilgan. Koxlear implantasiyadan so'ng bolalar bilan reabilitatsiya ishning bosqichlari hamda surdopedagog va logoped mutahasislarining korreksion-pedagogik ishlarda olib boradigan ish tizimi yoritilgan.

Kalit so'z: koxlear, reabilitatsiya, abilitatsiya, sensonevral, nutq prosessori, tovush, talaffuz, artikulyatsiya, tovush, talaffuz, operatsiya, logoped, surdopedagog

ПРЕИМУЩЕСТВА РАННЕЙ КОХЛЕАРНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ У ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА

Рахимова Хуршидахон Садиковна
Коканский государственный педагогический институт
«Специальная педагогика»
PhD., доцент кафедры
E-mail: hurshidahon1991rahimova@mail.ru

Аннотация: В данной статье освещаются преимущества ранней кохлеарной имплантации и роль профессионалов в этом процессе. Выделены этапы реабилитационной работы с детьми после кохлеарной имплантации и направления работы по формированию произношения. Освещены этапы реабилитационной работы с детьми после кохлеарной имплантации и система работы глухих педагогов и логопедов в коррекционно-педагогической работе.

Ключевые слова: улитка, реабилитация, реабилитация, нейросенсорная система, речевой процессор, звук, произношение, артикуляция, звук, произношение, операция, логопед, глухой педагог.

ADVANTAGES OF EARLY COCHLEAR IMPLANTATION IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT

Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna

Kokan State Pedagogical Institute

"Special pedagogy"

Ph.D., associate professor of the department

E-mail: hurshidahon1991rahimova@mail.ru

Abstract: This article highlights the benefits of early cochlear implantation and the role of professionals in this process. The stages of rehabilitation work with children after cochlear implantation and directions of pronunciation formation work are highlighted. The stages of rehabilitation work with children after cochlear implantation and the work system of deaf pedagogues and speech therapists in correctional pedagogical work are highlighted.

Key words: cochlear, rehabilitation, rehabilitation, sensorineural, speech processor, sound, pronunciation, articulation, sound, pronunciation, operation, speech therapist, deaf pedagogue

KIRISH.

Eshitishni ilk davrlardanoq protezlash, buzilgan eshitish funksiyalarini o'z vaqtida korreksiya qilish, kar va zaif eshituvchi bolalar eshitish idrokining faol shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada bolalarda nutqiy faollik va uning asosida intellektual faoliyat rivojlanadi. Amaliyotda koxlear implantatsiyadan foydalangan katta yoshli shaxslarni ta'kidlashlaricha, ushbu moslama yordamida tovush va nutq nisbatan tabiiy jaranglaydi, turli tovush ma'nbaalarini topish imkonini kengaytiradi hamda eshitishga o'ta diqqatni sarflash paytida insonning toliqishini kamaytiradi. Koxlear implantasiya bugungi kunda ham tug'ma, ham olingan sensonevral kar insonlarni eshituvchilar olamiga olib kirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlarning ichki qulog'ining tovush qabul qiladigan qismi ya'ni chig'anoqdagi tukli hujayralar o'rnini bosuvchi elektrod joylanadi. Nutq prosessori tashqi olamdagi tovushlarni qabul qilib, ular o'z navbatida elektr

impulslariga aylanadi va implantasiyalangan elektrodlar yordamida ovozli axborot bosh miyaning eshituv markaziga uzatiladi.

Bugungi kunda bolaning hayotining dastlabki uch yili miyaning eshitish va nutq markazlarining rivojlanishi uchun eng muhim davr bo'lganligi sababli, bolaning ilk yosh davrlarida koxlear implantasiya amalga oshirilmoqda. Koxlear implantatsiya qilingan bola – bu yangi tug'ilgan chaqaloq hisoblanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloq dunyoga kelishi bilan gapira olmaydi ularda og'zaki nuqt hosil bo'lishi uchun bola tashqi olamni eshitib, taqlid asosida dastlab unli tovushlar talaffuz qilish orqali keyin esa bir bog'inli qisqa so'zlar orqali og'zaki nutqi shakllanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola 3 yosh yoki 5 yoshligida implant o'rnatilsa, implantli bolaning nutqi sog'lom tengdoshlaridan 3 yil yoki 5 yil orqada qolishi mumkin. Shu bois, bolaning ilk yosh davridan koxlear implantatsiya amalga oshirilsa, bola tengdoshlari bilan bir vaqtda dunyoni eshitishga va taqlid asosida talaffuz qilishga o'rganadi. Ilk yoshdagi koxlear implantasiyaning maqsadi suhbatdoshining nutqini tushunish, mustaqil gapirish va atrofdagi odamlar bilan muloqot qilish uchun nutqdan foydalanishni o'rganish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Y.P.Kuzmichyova tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasiga ko'ra eshituv-nutqiy tizimda eshitish idrokini rivojlantirishga asos solindi. E.V.Mironovanning yozishicha, koxlear implantatsiya deganda, eshitish nervi tolalarini bevosita elektr toki orqali harakatga keltirish yo'li bilan eshitish qobiliyatini tiklash maqsadida ichki quloq ichiga elektrod tizimlarni joylashtirish tushuniladi.

Koxlear implantasiyadan so'ng kichik yoshdagi bolalarni reabilitasiya qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biri nutqni rivojlantirish bo'yicha nutq terapiyasi hisoblanadi. Mashg'ulotlar boshlanishidan oldin surdopedagog turli darajadagi nutqiy va nonutqiy ovozlar yordamida bolalarning individual eshitish qobiliyatini aniqlaydi va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.

Mashg'ulotlarni tashkil etishdagi maxsus shartlar:

- xonada tashqi shovqin va aks sado ta'siri istisno qilinadi;

- surdopedagogni bolaning implantasiyalangan qulog'i tomonida o'tirishi;
- bir vaqtning o'zida bir nechta odamning nutqini istisno qilinadi;
- surdopedagog va logopedning ovozi biroz sekinlashib, pauza qilish bilan tushunarli dona-dona ovozda gapirishi lozim[1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

I.V.Korolevaning ilmiy izlanishlarini o'rganish jarayonida quyidagi jadvalni ishlab chiqdik. Koxlear implantasiyadan so'ng reabilitasiyaning to'rt bosqichini va har bir bosqichda surdopedagog va logoped turli vazifalarni quyidagi jadvalga jamladik.

(1-Jadval)

Koxlear implantasiyadan so'ng bolalar bilan reabilitasiya ishning bosqichlari


Reabilitasiya bosqichi	Koxlear implantatsiyadan keyingi vaqt oralig'i	Reabilitasiya ishining vazifalari	Surdopedagogning vazifalari
1. Boshlang'ich	3-12 hafta	1. Koxlear implant prosessori sozlamalarini amalga oshirish, bolaga nutqiy va nonutqiy tovushlarni kamida 4 metrdan 6 metrgacha masofada qabul qilish imkonini beradi. 2. Bolaning nutqiy va nonutqiy tovushlarga va atrof-muhit tovushiga, insonning ovozini tinglashga bo'lgan qiziqishini uyg'otish	1. Bolaning ovozlar dunyosiga kirib kelishida eshitish idrokini rivojlantirish. Kelajakdagi nutqning fiziologik asoslarini shakllantirish. 2. Bolaning o'z ovoziga qiziqishi, muloqot uchun o'z nutqidan foydalanishini rag'batlantirish. 3. Ota-onalarga talaffuz malakalarini rivojlantirish, nutqni faollashtirish bo'yicha maslahat berish.
2. Asosiy	5-18 oy	1. Koxlear implant nutq prosessorini sozlashning optimal parametrlariga erishish. 2. Bolada barcha bilish jarayonlarini shakllantirish tovushlarni tahlil qilish. 3. Bolaning nutqiy muloqot qilishi uchun motivasiyasi.	1. Fonemik eshitishni rivojlantirish, so'zlarni eshitish orqali o'rganish va xotirasini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. 2. Ovozni rivojlantirish, artikulyatsion apparatlarning harakatchanligini oshirish, ovozli muloqotni rivojlantirish bo'yicha ishlar. 3. Eshitish va eshitish idrokini rivojlantirish. 4. Koxlear implant bilan bolada o'z og'zaki nutqining tez suratda rivojlanishini rag'batlantirish.

3. Til	5 yilgacha davr	1. Tilning grammatik tizimini rivojlantirish (mahalliy tizim til-so'z, grammatika). 2. Muloqot va bilim vositasi sifatida nutqni rivojlantirish. 3. Eshitish qobiliyatini takomillashtirish va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantirish	1. Eshitish idroki va xotirasini rivojlantirish. 2. Aktiv va Passiv lug'atini yanada boyitish 3. Grammatik tizimni rivojlantirish. 4. Eshitish-vizual va eshitish asosida og'zaki nutqni tushunishni rivojlantirish. 5. Faol (ifodali) lug'atning to'planishi. 6. Dialogik nutqni rivojlantirish. 7. Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish. 8. Ovozni nazorat qilish, ovozli aloqa, prosodik komponentlarni takomillashtirish. 9. Berilgan matnni o'qish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish.
4. Bog'langan nutqni rivojlantirish bosqichi	Rivojlanishning keyingi davri	Atrof muhit to'g'risida umumiy taasurotlarni kengaytirish	Lug'at zahirasini kengaytirish. Grammatik tizimini yanada rivojlantirish

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Ilk yoshdagi koxlear implantli bolalar bilan talaffuzini shakllantirishning birinchi bosqichi operasiyadan avval boshlanadi va operasiyadan keyin bu reabilitatsiya jarayoni davom ettiriladi.

Dastlabki talaffuzini shakllantirish ishlari bir qator yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:



1. **Nutqiy nafasni shakllantirish** (yo'nalishli havo oqimi shakllanishi, nafasning kuchi va davomiyligini oshirish). Buning uchun sharni puflash, shamni puflash, paxtani puflash v.x.
2. **Artikulyasion massaj**. Artikulyasiya apparatlarda harakatchanlik past bo'lgan va mushak tonusi zaif bolalar uchun amalga oshiriladi.
3. **Artikulasion gimnastika**. Artikulatsion a'zolarining harakatchanligini yanada oshirishga yordam beradi. Bu shuningdek, oynaning oldida bajarilib, "oyna oldida harakatlar qilish", turli xil ovozli mashqlar, qo'shiq aytish, bolaning kattalarga taqlid qilishiga yordam beradi[4].

Koxlear implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya ishlari uchun bu yo'nalishlar kelajakdagi bolaning talaffuz kamchiliklarini bartaraf etishga va sog'lom bolalar kabi suhbatdoshni eshitib javob qaytarishi uchun zamin yaratadi.

Ko'p hollarda, koxlear implantasiyadan avval kichik yoshdagi bolalar o'z nutqlariga ega bo'lishmaydi. Ular faqat ovozli vokalizasiyaga ega bo'lishi mumkin. Bolalar birinchi navbatda beixtiyor va keyin o'zboshimchalik bilan ovozli reaksiyalarni chaqirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu albatta o'z navbatida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Koxlear implant ulanib bo'lgach, eshitish idrokini rivojlantirish, passiv so'z birikmalarini to'ldirish va to'satdan nutqni keltirib chiqarish bilan shug'ullaniladi. Dastlabki bosqich asosiy bosqich hisoblanadi.

Koxlear implant bilan bolaning eshitish idrokini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: ovozni aniqlash(tovush / tovush yo'q), tovush manbasini lokalizasiya qilish, nutq va noaniq tovushlarni ajratish, tovush xususiyatlarini baholash (baland ovozda – jim, baland – past va boshqalar), noaniq atrof-muhit tovushlarini farqlash va aniqlash (musiqa asboblari, hayvonlarning ovozi),turli xil nutq signallarini aniqlash (fonemlar, so'zlar, iboralar) .

Logoped va surdopedagoglar fonemik eshitishni rivojlantirish uchun ish olib boradi (bolani hayvonlarning tovushlarini, atrofdagi dunyoni, yaqin odamlarning ovozlari o'rganishga o'rgatadi). SHu bilan birga, so'z birikmalarini tuzish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, bu esa ota-onalarga tegishli. Koxlear implant yoqilish vaqtida bolalarda o'z nutq ko'pincha butunlay yo'q, yoki alohida g'uvur-g'uvur so'zlar bilan ifodalanadi.

Koxlear implantasiyadan so'ng og'zaki nutqni rivojlantirish, boshqalarning nutqini tushunish, grammatik g'oyalar va talaffuz qobiliyatlarini shakllantirish. Logoped ishining vazifasi-bu talaffuz kamchiliginibartaraf etish va birinchi navbatda talaffuz qilish qobiliyatini, so'ngra so'z birikmalari ketma-ketligini rivojlantirish uchun nutq tovushlarini chaqirishdir.

Koxlear implantga ega bo'lgan bolada ovozning rivojlanishi bir qator xususiyatlarga ega. Ko'pincha bu nutq tovushlarining mexanik ifodasi emas, balki ularni chaqiruvchi tovushlar, so'z birikmalari yoki qisqa so'zlarni talaffuz qilish bilan ifodalanadi. Ushbu usuldan foydalanish ovozli reaksiyalarni, tovushlarni, artikulyasiya, nafas olish va ovozli apparatlarni tezroq bajarishga yordam beradi.

Mutahassis ishining dastlabki bosqichlarida implant qilingan bolaning nutqini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar uni to'satdan nutq faoliyatining namoyon bo'lishiga olib keladi. Buning uchun bolalarni oddiy so'zlardan foydalanishga o'rgatish muhimdir. Bu jarayonda o'qituvchi birinchi navbatda kundalik hayotda eng ko'p ishlatiladigan oddiy va eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni (ber, ol, ich, aya, dada, buvi va h.k.) bir necha marta aytadi, ularni tegishli harakatlar va narsalar bilan bog'laydi. Asta-sekin bola kattalarga tanqid qiladi.

XULOSALAR.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Koxlear implantli bolalar bilan ishlaganda so'zlarni bo'g'inlarga ajratishga ham e'tibor qaratish lozim. Buning uchun so'zlar, ayniqsa, gaplarni ohangiga e'tibor berib talaffuz qilish zarur. Mazkur yondashuv orqali bolalarda so'zlarni bo'g'inlarga va gaplarni qismlarga ajratish ko'nikma va malakalari shakllanadi. So'zlarni bo'g'inlarga ajratishning an'anaviy usuli qarsak chalishdan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu usul koxlear implantli bolaga oson va so'z tarkibini nazorat qilishga qulaydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

List of used literature

1. Королева И.В. Слухоречевая реабилитация глухих детей с кохлеарными имплантами. - СПб., 2005.
2. Королева И.В. Прогноз эффективности слухоречевой реабилитации после кохлеарной имплантации у детей младшего возраста // Дефектология, 2002.
3. Fayziyeva U, D.Nazarova, F.Qodirova. T., Surdopedagogika (o'quv qo'llanma) "Sano standart" nashriyoti. 2012.
4. X.S.Raximova. Koxlear implantli bolalar bilan logopedik ish. O'quv qo'llanma. Farg'ona 2021 yil
5. Raximova X.S. Ilk yoshdagi koxlear implantatsiyaning afzalliklari // "Bola va Zamon" 2023, 2 – son. 47-49 b.